

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSЛИGIDAGI “BUYUK IXTIROCHILAR” MATNINI O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL VA KREATIV FIKRLASHLARI ORQALI TAHLIL QILISH USULLARI

Rabbimova Zarnigor,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya

O‘rganilgan tadqiqotlardan ma’lumki, qoida, jumla va matnlarni shunchaki yodlab olish yoki xotirada mavjud bo‘lganlarini talaffuzda takrorlash bolalarni mustaqil fikrlashdan chalg‘itadi. Aslida, fikrlash – o‘rganilayotgan narsa va hodisalarini hayot bilan bog‘lash, uning bola kelajagi uchun zaruriy qiymatini belgilay olish, har bir narsa va hodisaning asl mazmun-mohiyatiga kirib bora olishlikdir. Maqolada ushbu masalalar tahlil qilingan.

Аннотация

Исследования показывают, что запоминание правил и предложений – это не то же самое, что запоминание предложений и предложений. Мысление – это способность соотносить изучаемые вещи и события с жизнью, определять их ценность для жизни, уметь проникать в суть всего и событий.

Annotation

Studies show that memorizing rules and sentences is not the same as memorizing sentences and sentences. Thinking is the ability to relate the things and events being studied to life, to determine its value for life, to be able to get into the essence of everything and events.

Boshlang‘ich ta’limda asarni o‘qishga kirishishdan oldin kichik o‘quvchilarini badiiy matnni o‘qishga tayyorlash lozim bo‘ladi. O‘quvchilar matn mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari uchun unda tasvirlangan badiiy hayot bilan haqiqiy hayot haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun mutolaadan oldingi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Asar tahlili maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil faolligi ortadi. Chunki asarni tahlil qilish asnosida ularning kreativ va mustaqil fikrlashlari rivojlanadi, ijodiy jarayonni boshlaridan kechiradilar, bir qator noma’lumlikni kashf etadilar. Matnni tahlil qilish orqali o‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi, og‘zaki nutqining ravonligiga erishiladi.

2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi “Buyuk ixtirochilar” matni ustida ishslashdan oldin tahlilga kirish suhbati o‘tkaziladi. Bunda mavzuga oid suhbat tashkil etiladi. Masalan, ixtirochilar kimlar, ular nimalar bilan shug‘ulanadi, ular ixtiro qilgan narsalarning insonlar hayotida qanchalik muhimligi, buyuk ixtirochi bobolarimizdan kimlarni bilasiz va hokazo. Shundan so‘ng matn ifodali o‘qib beriladi.

“Buyuk ixtirochilar” matni

Bilasizmi, bolalar, o‘tmishda juda ko‘p buyuk kashfiyotchilar, ixtirochi olimlar yashab o‘tgan. Ular o‘zlarining ilmiy kashfiyotlari bilan bizga tabiat sirlarini ochib berishga erishganlar. Olimlar yaratgan ixtirolar turmushimizni yengillashtirib, sog‘lig‘imizni asrashga yordam beradi. Boshqa birlari esa uzog‘imizni yaqin qiladi. Yana boshqalari masofaviy muloqotlarimizni, aloqalarimizni

oson bog'lab beradi. Hozirgi kunda ham dunyoda ixtirochilar juda ko'p. Yangilik yaratish yo'lida doimo izlanishlar olib boradilar.

Bizning ajdodlarimiz ham turli izlanishlar, tadqiqotlar olib borgan va dunyo tan olgan olimlar sirasiga kirganlar. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek yaratgan kashfiyotlar ham yangi ixtiolar yaratishiga sabab bo'lgan.

Ahmad al-Farg'oniy bobomiz Misrda, Nil daryosi bo'ylarida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Izlanishlarning natijasida Nil daryosidagi suvning hajmi va tezligini o'lchaydigan inshoot-nilometrni yaratgan. Nilometr Nil daryosi suvidan oqilona foydalanish, dehqonchilik va aholining iqtisodiy holatini oldindan aniqlash imkonini berardi. Misrda dehqonlarga soliq solish masalalari ham nilometr ko'rsatkichlari asosida amalga oshirilgan. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Ahmad al-Farg'oniy yaratgan ushbu inshoot hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Usturlob-yulduzlarning joylashuv gradusini aniqlash uchun yaratilgan uskuna. Undan bobolarimiz yulduzlar joylashuvini o'rganishda foydalanishgan.

Hozirda ushbu usturlob Fanlar akademiyasi temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanadi.

Mirzo ulug'bek bobomiz bir ming o'n sakkizta yulduzning joylashish o'rmini aniqlab, jadvalga kiritganlar.

Matn o'qituvchi tomonidan hikoya qilib bo'lgandan keyin, o'quvchilar bilan birgalikda matn tahlil qilinadi. Darslikda matn yuzasidan tuzilgan savollarga o'quvchilar javob berishadi. Matn asosida quydagi savollar darslikda keltirilgan.

1. Ixtiro va kashfiyotlar inson hayotida qanday o'rinn egallaydi?
2. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
3. Ahmad al-Farg'oniy bobomiz yaratgan ixtiro haqida so'zlab bering.
4. Usturlob nima? Undan nima maqsadda foydalanishgan?
5. Siz kelajakda nimalar ixtiro qilgan bo'lardingiz?

O'quvchilarning matn mazmunini to'liq anglab yetishlari, tushunishlari uchun hayot bilan bog'lab, mustaqil va kreativ fikrlashga undovchi savollar tuzish, o'quvchilarni o'ylashga undaydigan savollardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ixtiro deganda nimani tushunasiz?
2. Ixtirochilar kimlar ular nimalar bilan shug'ullanadi?
3. Qadimda ixtiro qilingan narsalar bilan hozirda ixtiro qilingan narsalarning farqli jihatlari nimada?
4. O'z yaqinlarizdan, kimlarni bilasiz? Ular nimalar ixtiro qilishgan?
5. Ixtirochi bo'lish uchun nimalar qilishi va qanaday bilim olishi kerak?
6. O'quvchilar, katta bo'lganizda qanday kasbni egallaysiz? O'z fikringizni bildiring?
7. Hozirgi kunda ixtiro qilingan narsalardan nimalarini bilasiz?
8. Bugungi kundagi elektr pampasi, qadimda qanday ko'rinishda bo'lgan?
9. Qadimda kitoblarni qanday chiqargan? Hozirgi kunda esa, qanday chop qilinadi?
10. Buyuk ajdodlarimizdan ixtiro qilganlardan kimlarni bilasiz?
11. Ahmad al-Farg'oniy bobomiz yaratgan ixtiro haqida so'zlab bering?
12. Ixtiro va kashfiyotlar inson hayotida qanday o'rinn egallaydi?
13. Ixtirochilar haqida maqollar bilasiz?
14. Ixtiro qilingan narsalar haqida topishmoqlar bilasizmi?
15. Siz kelajakda nimalar ixtiro qilgan bo'lardingiz?

O'quvchilar savollarga javob berib, matn haqida umumiylar xulosa chiqarishadi. Chiqarilgan umumiylar xulosa o'quvchining mustaqil hamda kreativ fikrlashidan kelib chiqishi, barchaning aytgan fikri o'ziga xosligi borasidagi to'xtamda qolishga harakat qilinishi lozim.

Matn mazmunini mustahkamlash uchun darslikdagi topshiriqlar bilan ishlash ham yaxshi samara beradi.

1-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning ma'nosini bilib oling.

Tadqiqot---tekshirish, o'rganish ishi

Qonuniyatlar---hodisalar o'rta sidagi bog'lanishlar va ularning qonunlari

Yodda saqlang!

1. **Tomas Alva Edison** – butun dunyoga mashhur amerikalik ixtirochi. U telegraf, telefon, kinoapparaturani takomillashtirdi, xavfsiz elektr chog'lanma lampasini yaratdi, dastlabki elektrovozlariga asos soldi, fonografni ixtiro etdi.

2. Rossiyalik olim Aleksandr Stepanovich Popov radioni ixtiro qilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich ta'linda adabiyot o'qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU, 2019. – 350 b.
2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M. Sinfda o'qish metodikasi. – Samarqand: SamDU, 2020. – 156 b.
3. Aydarova U.B. 2-sinf "O'qish savodxonligi" 1-qism. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.
4. Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2001. – 288 б.
5. Jo'raqulov R. Umumiylar o'rta ta'limga maktablarining boshlang'ich sinfalarida o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligi haqida tahliliy ma'lumot. –T., 2021.
6. Shoniyoziyova D. Zamonaviy ta'limga muammolari (Boshlang'ich ta'limga misolida). –T., 2021.
7. Qarshiyevna, R. G. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).
8. Gulbahor, R. (2023, April). O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).
9. Rahimova, G., & Akramova, S. (2023). Legendary Heroine Women of History" Tamaris" and " Queen Sondok". World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(2), 99-101.
10. Rahimova, G., & Sh, F. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM VA TARBIYA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 60-63.
11. Rahimova, G., & Norbekova, S. (2022). ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDAGI YUMORISTIK MOTIVLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(10), 110-113.